



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Elektron nashr. 229 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiynabonu, Durдона Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyorova Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durдона Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durдона Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlari	203
Tojiyev Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulyatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	



MOLIYAVIY REGULYATSIYA VA FISKAL SIYOSAT ORQALI XUFYONA IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
ORCID: 0009-0001-7526-5316
E-mail: abdurasulovxumoyun08@gmail.com

Axmedov Xasan Ruzibayevich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasini professori,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0007-5193-4662
E-mail: akhmedov0828@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda so'nggi yillarda soliq va moliya tizimida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda biznes subyektlari ishonchini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning umumiy ovqatlanish, savdo, transport, qurilish va turarjoy xizmatlari kabi tarmoqlardagi ta'siri ko'rib chiqilib, xorijiy tajribani o'rganish asosida mamlakatimiz sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract: This article analyzes the comprehensive reforms implemented in recent years in the tax and financial system of our country to improve the business environment, enhance investment attractiveness, and strengthen the confidence of business entities. Additionally, the impact of the shadow economy on sectors such as public catering, trade, transportation, construction, and housing services is examined. Based on the study of international experience, scientific and practical recommendations applicable to the conditions of our country have been developed.

Key words: tax revenues, risk analysis, threats, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация: В данной статье проводится анализ масштабных реформ, осуществлённых в последние годы в налоговой и финансовой системе нашей страны с целью улучшения предпринимательской среды, повышения инвестиционной привлекательности и укрепления доверия бизнес-субъектов. Кроме того, рассматривается влияние теневой экономики на такие сферы, как общественное питание, торговля, транспорт, строительство и жилищные услуги. На основе изучения зарубежного опыта сформированы научно-практические рекомендации, применимые в условиях нашей страны.

Ключевые слова: налоговые поступления, риск-анализ, угрозы, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Keyingi yillarda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish va uning oldini olishda, boshqa instrumentlar singari, soliqlardan samarali foydalanish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Soliqlar nazorati yanada erkinlashtirildi, soliq stavkalari, ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi hamda mol-mulk solig'i stavkasi sezilarli darajada kamaytirildi. Insofli soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlashga oid choralar kuchaytirilmoqda. Shunga qaramay, milliy iqtisodiyotimizda xufyona iqtisodiyot darajasi yuqori bo'lib qolmoqda. Bunda boshqa omillar qatori soliq instrumentlaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda xufyona iqtisodiyot ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish yo'llariga oid qisqacha adabiyotlar sharhi quyidagicha keltiriladi.

Mahkamovning [1] fikricha, davlat tomonidan belgilangan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik, foyda (daromad)ni yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish va kamaytirib ko'rsatish holatlarini kamaytirish uchun soliq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishga oid chora-tadbirlarni takomillashtirish muhimdir. Unga ko'ra, mamlakatimizda amal qilib kelayotgan bir qator qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish orqali mavjud muammolarni qonun yo'li bilan hal qilish zarur. Bu esa, o'z navbatida, ushbu sohadagi jinoyatlarni oldini olishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Soliqdan qochish holati soliq to'lovchining iqtisodiy egoistik tuyg'usiga asoslangan bo'lsa-da, u jamiyatning iqtisodiy sohalarida ijtimoiy muammo darajasida namoyon bo'lib, siyosiy masalalarga aylanadi.

Bu borada Bavariya moliya vaziri Guver "Germaniyada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash istagi — tug'ilish istagidan kuchliroqdir", deb ta'kidlagan. Bu fikr soliqdan bo'yin tovlashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ochib beradi [2].

Abdullinaning [3] fikricha, soliqdan qochish holatlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, yangi tashkil etilgan va tez faoliyatini tugatadigan korxonalarini monitoring qilishdagi malaka yetishmovchiligi, shuningdek, fuqarolik va iqtisodiy-huquqiy hujjatlarni o'zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning murakkabligi, qonun hujjatlarining yetarlicha takomillashmaganligi soliqdan qochishga qarshi chora-tadbirlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Vachugov [4] soliqdan qochish jarayonini yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida baholab, "soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot" tushunchasini ilgari suradi. Uning ta'rificha, "soliq to'lashdan bo'yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo'lib, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi soya tuzilmalarning mavjudligi bizga 'soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot' atamasini kiritish imkonini beradi. Bu holat soliq to'lovchilarning o'zlari hamda ularga soliqdan qochish xizmatlarini ko'rsatadigan maxfiy tuzilmalarni o'z ichiga oladi".

Rayzberg [5] yashirin iqtisodiyotni "reklama qilinmaydigan, ularning ishtirokchilari tomonidan yashirilgan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, rasmiy davlat statistikalarda aks ettirilmagan iqtisodiy jarayonlar" sifatida ta'riflaydi.

Yefimichev [6] esa soliq to'lashdan bo'yin tovlashni "qonunda belgilangan soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni ataylab bajarmaslik shaklida namoyon bo'ladigan harakatsizlik" deb ta'riflaydi.

Nudel [7] soliq to'lashdan bo'yin tovlashni ijtimoiy xavfli deb baholab, uni "jismoniy yoki yuridik shaxslarning qonunda belgilangan soliqlar va (yoki) yig'imlarni to'liq yoki qisman to'lamaslikka qaratilgan harakat yoki harakatsizlik" sifatida tushuntiradi.

Mayburova, Kireenko va Ivanovalar [8] soliqdan qochishga quyidagicha ta'rif beradilar: "Soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda soliq to'lovchining soliqlarni to'lash majburiyatini noqonuniy yo'llar bilan o'zgartirish tushuniladi. Bu holatda soliq organlaridan daromadlar va mol-mulkni yashirish, uydirma xarajatlar yaratish, shuningdek, ataylab buxgalteriya hisobini va soliq hisobotini buzish kabi hatti-harakatlar yuzaga keladi."

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil va trend tahlili usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimidagi muhim masalalardan biri sifatida soliq siyosatini shakllantirish va uni amalga oshirishning strategik hamda taktik yo'nalishlariga oid ilmiy tadqiqot metodlaridan keng foydalanilgan holda tahlil olib borilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (aslida ishlab chiqaruvchilar ham iste'molchi bo'ladi) ning o'z manfaatlari mavjud bo'ladi. Bunday manfaatlar sirasida iqtisodiy manfaatlar ustuvor hisoblanadi va u individlarning boshqa manfaatlariga erishishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning iqtisodiy manfaatlari ayrim hollarda ularning jamiyat manfaatlaridan tashqarida, hatto unga qarshi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Aynan ana shunday "ayrim hollar"ni yuzaga keltiruvchi omillar mavjud bo'ladi. Demak, jamiyat iqtisodiy sohasidagi o'ziga xosliklar umumiy qabul qilingan normalarni (bu normalar, aslida, qonuniy yo'l bilan mustahkamlangan bo'ladi) rad etish yoki ularni chetlab o'tishga undovchi iqtisodiy manfaatlarning ustun kelishi natijasida "o'yin qoidalari" buziladi. Bunday buzilishlar dastlab axloqsizlik, ya'ni ijtimoiy normalarni mensimaslik sifatida baholanib, ularga nisbatan davlat tomonidan qonuniy choralar ko'rilgan.



Davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy faoliyat yuritish qoidalarini buzish, ularni chetlab o'tish, ayniqsa, belgilangan soliqlarni to'lamaslik yoki turli yo'llar bilan soliq to'lashdan bo'yin tovlash, davlatga tegishli yerlarda ruxsatsiz dehqonchilik qilish va undan olinadigan daromadlar haqida tegishli davlat organlarini xabardor qilmaslik, natijada soliq to'lamaslik, boshqalarning mulkini talon-taroj qilish, bojxona qoidalariga amal qilmaslik, lavozimni suiste'mol qilish va shu kabi holatlar tarixan turlicha nomlar bilan atalgan. Bunday nomlanishlar — axloqsizlik, davlatga xiyonatkorlik, jamiyat o'g'risi, poraxo'rlik kabi iboralar bilan ifodalanib, bunday shaxslarga turlicha jazo choralarini qo'llanilgan.

Jahon iqtisodiy xo'jaligining rivojlanishi, iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlarning kengayib borishi, iqtisodiyotda ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi nisbat, milliy iqtisodiyot doirasida yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulot va uning real hajmini baholashga oid ilmiy yondashuvlar bunday jarayonlarga alohida ilmiy yondashishni taqozo etmoqda.

O'zbek olimlari A. O'lmasov va Sh. Qobulovlar yashirin iqtisodiyot va xufyona iqtisodiyotni sinonim kategoriya sifatida baholab, uni ishtirokchilari tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan va rasmiy statistikada qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, ya'ni iqtisodiy faoliyat turlari sifatida izohlaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, bu jarayonlar oshkora aniqlab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash hamda iste'mol qilish jarayonlari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar shaklida namoyon bo'ladi va bir guruh insofsiz shaxslarning manfaatlarini ifodalaydi.

Xufyona iqtisodiyot bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan prof. X. Abulqosimovning ta'kidlashicha, "xufyona iqtisodiyot" (shadow economy) deb davlat hisob va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababli rasmiy statistikada aks etmaydigan xo'jalik faoliyatiga aytiladi. Unga ko'ra, xufyonalik (yashirinlik) — bu shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda qonuniy normalardan bo'yin tovlab, yozilmagan huquq — an'analar, urf-odatlar, mulkchilik huquqlarini almashish va himoya qilishga oid nizolarni qonundan chetga chiqqan holda hal etish mexanizmlariga tayanishidir¹.

"Kulrang" shakldagi yashirin iqtisodiyot mohiyatan ro'yxatga olinmagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda ularni qonunchilik tomonidan taqiqlanmagan holda sotish faoliyati sifatida baholanadi. Bunday holatlarda ishlab chiqarish va sotuv natijalari buxgalteriya va statistik hisoblarda aks ettirilmaydi. Aslida qiymat yaratilgan bo'lsa-da, u rasmiy milliy mahsulotlar hajmida qayd etilmaydi. Shu bois, ular haqiqatda iste'molni ta'minlasa-da, milliy manfaatlarga xizmat qilmaydi va soliqqa tortilmagani sababli umumjamiyat ehtiyojlarini moliyalashtirishga ham hissa qo'shmaydi.

Xufyona iqtisodiyotning eng xavfli shakli sifatida "qora" yashirin iqtisodiyot e'tirof etiladi. Bu shakl qonunlarni umuman mensimaslikka, taqiqlangan faoliyat va tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish hamda ularni rasmiy hisobdan chetda qoldirib, to'liq o'zlashtirishga asoslangan iqtisodiy-huquqiy faoliyatdir. Bu yerda uyushgan va individual jinoyatchilik, zo'ravonlik, o'g'rilik, bosqinchilik, odam savdosi, qimor o'yinlari, tovlamachilik, narkobiznes, qurol savdosi kabi jinoyat turlari mavjud bo'ladi. Bunday faoliyat qonuniy va shaffof faoliyat natijasida topilgan daromadlarni qayta taqsimlash asosida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy va sotsial jarayonlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, davlat byudjetiga tushum keltirmasdan, unga qarshi kurash xarajatlarini oshiradi, boshqalarning qonuniy daromadlarini majburlab tortib olish orqali aholi real daromadlarining kamayishiga olib keladi.

Ta'kidlash lozimki, xufyona iqtisodiyotning shakllanishi davlat tomonidan ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida kiritilgan qonunlar va normativ talablar bilan bevosita bog'liqdir. Bu holatga ilmiy baho berish, jumladan, soliq to'lamaslik yoki ajratilmagan yer uchastkasidan foyda olish kabi misollar orqali izohlash mumkin. Mazkur holatlarni ilmiy tadqiq qilish esa XX asrning 1930-yillaridan boshlab diqqat markaziga tushgan.

Yashirin iqtisodiyot davlat uchun quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- soliq tushumlarining kamayishi;
- ishchilarning mehnat tengsizligi va ekspluatatsiyasi;
- qonunga bo'ysunmaslik va korrupsiya;
- qonuniy korxonalar uchun raqobat muhitining buzilishi;
- iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qonunbuzarlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish;
- soliq tizimini takomillashtirish;
- rasmiy bandlikni rag'batlantirish;
- tadbirkorlar uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirish.

¹ Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.-T.: Noshirlik yog'dusi, 2019.-485-490-betlar.



Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Noqonuniylik: Ko'pgina faoliyat turlari qonuniy ro'yxatdan o'tmagan, soliqqa tortilmaydi yoki nazorat qilinmaydi.
2. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash: Yashirin iqtisodiyotning ajralmas xususiyatidir.
3. Tartibga solish yo'qligi: Davlat nazoratidan tashqarida ishlaydi.
4. Ro'yxatdan o'tmagan korxonalar: Litsenziyasiz, ruxsatnomalarsiz faoliyat yuritadi.
5. Naqd puldan foydalanish: Tranzaksiyalarni yashirish uchun.
6. Ijtimoiy ta'minotsizlik: Sug'urtasiz va pensiyasiz ishchilar.
7. Korrupsiya: Yashirin faoliyat ko'pincha poraxo'rlik bilan bog'liq.
8. O'zgaruvchanlik: Qonunlar o'zgarishiga tez moslashadi.
9. Statistikaga kiritilmaslik: Er osti faoliyatlar rasmiy hisobotda yo'q.
10. Kredit cheklovlari: Rasmiy hujjatlar yo'qligi kredit olishga to'sqinlik qiladi.
11. Milliy xavfsizlikka tahdid: Kontrabanda, qurol savdosi kabi faoliyatlar orqali.

Xulosa qilib aytganda, yashirin iqtisodiyotni aniqlash va kamaytirishda moliyaviy instrumentlarning o'rni beqiyos bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yuqorida bayon etilgan mulohazalardan kelib chiqib, xufyona iqtisodiyot — bu iqtisodiyotning rasmiy va qonunchilik doirasidan tashqarida faoliyat yuritadigan, moliyaviy-soliq instrumentlari orqali davlat tomonidan tartibga solinishi barqaror bo'lmagan, iqtisodiy-huquqiy va ijtimoiy-sotsial faoliyatdir. Mazkur holatni jilovlashda Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda Soliq qo'mitasi o'rtasida ma'lumot almashinuvi va axborot tizimlari integratsiyasini yo'lga qo'yish, ilgari iqtisodiy jinoyatlarga yo'l qo'ygan yuridik shaxslar ta'sischilari va rahbarlari haqidagi ma'lumotlarni soliq organlari bazasiga integratsiya qilish, bunday shaxslarga yangi tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ta'sischi yoki rahbar sifatida ro'yxatdan o'tishiga cheklovlar joriy etish, shuningdek, ushbu ma'lumotlar asosida soliq va moliya instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning muayyan qismini jilovlashga erishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur takliflar amaliyotga tatbiq etilganda, xufyona iqtisodiyotni kamaytirish, davlat byudjeti tushumlarini oshirish va iqtisodiy muhitning shaffofligini ta'minlashda muhim natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahkamov O. (2014). *O'zbekiston qonunchiligi tahlili*, № 3–4.
2. Kottke K. (1998). "Gryaznye" den'gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel'stvu v oblasti "gryaznyh" deneg. M.
3. Abdullina A.R. (2016). *Predstaviteli kak sub'ekty ukloveniya ot uplaty nalogov s organizatsii*. // Nauchnaya perspektiva, № 10, s. 37–38.
4. Vachugov I.V. (2019). *Uklonenie ot uplaty nalogov kak sostavlyayushchaya tenevoy ekonomiki: rost ili sokrashchenie?* // Nalogi i nalogooblozhenie, № 6, s. 42.
5. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubtseva E.B. (1997). *Sovremennyy ekonomicheskyy slovar'*. – M.: INFRA-M, 496 s.
6. Yefimichev P.S. (2000). *Predmet i predely dokazivaniya po ugovornym delam o nalogovykh prestupleniyakh*. // Zhurnal Rossiyskogo prava, № 9.
7. Nudel S.L. (2007). *Voprosy kvalifikatsii ugovovno-nakazuemogo ukloveniya ot uplaty nalogov i (ili) sborov*. // Nauchnye vedomosti, № 2(33).
8. Mayburova I.A., Kireenko A.P., Ivanova Yu.B. (2013). *Uklonenie ot uplaty nalogov. Problemy i resheniya: monografiya dlya magistrantov, obuchayushchikhsya po programmam napravleniya "Finansy i kredit"*; pod red. I.A. Mayburova, A.P. Kireenko, Yu.B. Ivanova. – M.: YUNITIDANA, 383 s.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>